BADIIY MATNNING KONSEPTUAL STRUKTURASI

Ulugova Shoxida Shoxruxovna, *Ispan va italyan tillari kafedrasi dotsenti*
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotasiya. Mazkur maqolada badiiy matnning kognitiv xususiyatlarini aniqlashda muhim o‘rin tutgan konseptual strukturalar haqida so‘z yuritiladi. Bir qator olimlar, jumladan, R. Zwaan, T. van Deyk, M. Jonson, L. Talmy, M. Terner, D. Ashurova, Sh. Safarov, M. Galeeva va boshqalar konseptual strukturalar va ularning xususiyatlari yuzasidan izlanishlar olib borganlar.

Kalit so‘zlar: tasviriy sxema, geshtalt, makon va zamon, konseptual tizim makrostruktura.

Abstract. The article deals with conceptual structures that have an important role in determining the cognitive characteristics of the artistic text. A number of scientists, including R. Zwaan, T. van Dijk, M. Johnson, L. Talmy, M. Turner, D. Ashurova, Sh. Safarov, M. Galeeva and others conducted research on conceptual structures and their properties.

Keywords: image schema, gestalt, space and time, conceptual system macrostructure.

Badiiy matnning mazmunini to‘liq anglash uchun uning umumiy ma’nosi yoki mavzusini, mohiyatini, gavdasining makro strukturadagi voqelanishini tahlil qilish lozim bo‘ladi (Zwaan.et.al. 2002). Aniqroq aytadigan bo‘lsak, makrostrukturalar ma’no va referensiyaning matn“global” sathida ifodalanishini modellashtirish an’anasi T. Van Deykning ishlaridan boshlangan edi (Dijk, Kintch 1983). Lekin, olim ushbu turdagi tuzilmalarni aniqlashda propozisiyalar tahliliga amal qilgan edi. Keyinchalik kognitiv tilshunoslik vakillari boshqacha yo‘nalishni tanlab, tasviriy sxemaga ega bo‘lgan geshtaltlar badiiy asarlarning umumiy strukturasini, kognitiv xususiyatlarini aniqlashda muhim rolni bajarishi mumkinligini qayd etdilar. Jumladan, M. Jonson, L. Talmi, M. Terner kabilar tasviriy sxema va badiiy matn mikrostrukturasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida ta’kidlab kelmoqdalar.



Mark Jonson “The Body in The Mind” (1987) – nomli kitobida an’anaviy semasiologik tadqiqotlarning kamchiliklari haqida gapirayotib, quyidagi fikrni bayon qilgan edi: “obyektivistik yondashuvda ma’no juda ham tor ko‘lamda qaralib, obyektik borliq va timsoliy tasavvur munosabati sifatida talqin qilinadi. Ular obraz, sxematik qolip, metaforik tasvir kabi propozisiyaga aloqador bo‘lmagan tuzilmalarni inkor etadilar” (Johnson 1987: 18). Olim taklif qilgan “tasviriy sxema” (image schema) nazariyasi mental strukturalarning mazmun tuzilishida va uni idrok etishda yetakchilik qilishini tasdiqlashga xizmat qildi.

M. Jonson “Moral imagination: Implications of cognitive science for ethics” nomli boshqa bir kitobida ayrim tasvir sxemalarining qanday va nima uchun asar tarkibida strukturalar hosil qilishini o‘rganadi. Uning aniqlashicha, asosiy yoki prototip strukturalardan tashqari, majburiy kuch, jalb qilish, yoqtirmaslik, markaz-sarhad, aylanma harakat kabilar bilan bog‘liq sxemalar metafora va metonomik ko‘chimlar uchun muhim ekanligini hamda ularning ishtiroki natijasida matnda variantlashuv holatlari yuzaga kelishini qayd etadi (Johnson 1993).

Yana bir amerikalik olim Mark Terner konseptual metaforalarning badiy matnda faollashuvi holatlarini badiiy bayon, hikoyaning konseptual aksini anglatuvchi “parable” (“hikoyat”) tushunchasini iste’molga kiritadi. Olimning qayd etishicha, “hikoyat ongning asosiy tamoyili bo‘lib, bizning tajribalarimiz, bilimimiz va o‘y-hayollarimiz asosan hikoya tarzida tuzilish oladi” (Turner 1996: 11). Kundalik turmushda kechadigan suv quyish, suvga borish, suv ichish va idishni stolga qaytarib qo‘yish kabi harakatlar bir-biri bilan alohida tasviriy sxemalar vositasida bog‘lanadi.

M. Terner sxemalarning badiiy matnda faollashuvini izohlash uchun yunon mumtoz adabiyoti namunasi bo‘lgan “Odissey”dan misollar keltiradi. Troya jangidan qaytayotgan dengizchilar Itaka tomon suzib boradilar, ammo yo‘ldagi sarson-sargardonchilik paytida ular turli vaqtda birma-bir turlicha o‘lim topadilar. M. Ternerning fikricha, bu murakkab sayohat to‘g‘risidagi hikoya bo‘lib, u yo‘l (Troya) va mo‘ljal (Itaka) tugunlaridan iborat freym yoki tasvir sxemasi asosida



shakllangan. Olim ushbu fikrini quyidagicha izohlaydi:

“We appear to understand an event as having its own “internal” structure... this internal structure is image schematic: it is rooted in our understanding of small spatial stories. I'll refer to this internal structure loosely as its “events shape”. We think of a season as coming around again, time as progressing along a line, a sale as closed. None of these events has the literal spatial or bodily form we associate with it, but we use image schemas to structure and reorganize these events” (Turner 1996: 27).

M. Terner aytayotgan “voqealar shakli”dan tashqari, sxemalar ularning sabablarini aniqlashga ham qo‘l keladi. Zero, sabablar konseptuallashuvning manbasi bo‘lib, ularning tuzilishi ham sxematik ko‘rinish oladi. Hatto, ba’zi sabab sxemalari oldin eslatilgan “ma’lum yo‘nalish bo‘ylab harakat” sxemasini takrorlaydi (Op.cit., p. 29).

Bundan tashqari, olim “qobiliyat”, “majburiyat”, “ehtiyoj”, “imkoniyat”munosabatlarini ifodalovchi modal strukturalarini ajratish kerakligini qayd etadi. Elementlarning o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi ushbu strukturalarni sxemalar tasvirida anglash mumkin bo‘ladi (Op.cit., p. 30).

Kognitiv semantika sohasining yirik mutaxassislaridan bo‘lgan Leonard Talmi matnlar kognitiv tuzilishi tahlilining umumlashgan modelini taklif qilgan. Ushbu model uch qismdan iborat: a) asosiy maydonlar; b) qatlamlar; v) parametrlar.

Birinchi qism ma’lum makon va zamondagi olam parchasini uning barcha xususiyatlari bilan birgalikda qamrab oladi. Shuningdek, L. Talmi bu qismga ma’lum madaniyat va jamoada amalda bo‘lgan presuppozisiya bilimlari, qadriyatlar, me’yorlarni hamda matnni yaratuvchi va qabul qiluvchilarni, matnning o‘zini ham kiritadi (Talmy 2000: 422). Parametrlar esa tashkil qilishning umumiy tamoyillari bo‘lib, ular strukturalarning munosabatini, farqlanishini, strukturalar birikishini va baho me’yorlarini belgilaydi.

Matn tuzilishi uchun muhim qism qatlamlar bo‘lib, u zamon, makon va



sabab strukturalaridan tarkib topadi. L. Talmining nazdida, zamon strukturasi davomiylik xususiyatiga ega, makon strukturasi esa “makonlashuvga ishora qiluvchi matrisa” hamda “unga oid konseptlar joylashuv yoki egalik qilish mazmuniga ega. Dinamik konseptlar, o‘z navbatida, yo‘nalish va mo‘ljalni ifoda etadi” (Op.cit., p. 436-438). Sabab strukturalari faollashuvida harakatlar ta’siri inobatga olinadi.

L. Talmi o‘z ishlarida “image schema” yoki “conseptual structure” atamalarini qo‘llamagan bo‘lsa-da, lekin uning qarashlari konseptual metaforaning yaxlit matn doirasida shakllanishi va tarqalishi holatlarining tahlilida muhim rol o‘ynashishi hech qanday gumon tug‘dirmaydi. Tadqiqotchining matnning kognitiv tahlilga nisbatan munosabati uning quyidagi so‘zlarida yaqqol ko‘rinadi: “narrative is something that by necessity is cognitively produced or experienced, rather than as anithing that could exist autonomously in it's own right” (Op.cit., p. 420). Narrativ (matn), o‘zicha alohida mavjud bo‘lgan biron tuzilmadan farqli ravishda, ehtiyoj yuzasidan kognitiv shakllangan va voqelangan hodisadir.

Matnning turli sathlariga oid birliklar uyushishidan tashkil topadigan tuzilma ekanini tilshunoslar allaqachon e’tirof etishgan. Ammo ushbu tuzilma qandaydir tartibsiz, o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladigan hodisa emas, aksincha, undagi har bir bo‘lak o‘zaro aloqada va bir-birini taqozo etadi (Кухаренко 1988: 70; Гальперин 1981; Boymirzaeva 2009; Ashurova, Galeeva 2016 va boshq.).

Matnda voqealar, faktlar, voqea kechayotgan makon va zamon, muallifning fikr-mulohazalari kabilar bayon qilinadi. Bularning barchasi matndagi faktual axborotni tarkib topdiradi. Mazkur turdagi axborot qo‘shaloq rolni bajaradi: u, bir tomondan, matnni “tiriltiradi”, ya’ni uni harakatga tushirib, mazmunni voqelantirsa, ikkinchi tomondan, ushbu mazmunni ifoda qilayotgan fikrni turli “niqoblar” vositasida yashiradi va bu bilan mazmun anglanishini qiyinlashtiradi. Badiiy matnda faktual axborot, boshqa janrdagilardan farqli o‘laroq, alohida yoki sof holda ifodalanmaydi. Ushbu axborot muallif maqsadiga mos ravishda uzatiladi. Shuning uchun ham badiiy matnning alohida qismlarga ajralib ketmasligini



ta’minlovchi asosiy omil – uning konseptualligidir. Konseptual axborotsiz matn yaxlitlik xususiyatga ega bo‘la olmaydi. Yaxlitlikni, ayni paytda, metindek jipslashish ramzida qaramaslik kerak, chunki yuqorida aytilgandek, har qanday matn turli konseptual strukturalar ishtirokida tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurova D.U., Galeeva M. Text Linguistics. – T: Turon-Iqbol, 2016. – 324 p.
2. Dijk van T.A., Kintch W. Strategies of Discourse Comprehension. – N.Y.: Academic, 1983. – 423 p.
3. Johnson M. The body in mind: The bodily basis of meaning, imagination, and reaction. – Chicago: University of Chicago, 1987. – 272 p.
4. Khaydarova Shakhlo, Khalimova Firuza. 2023. Specific qualities of the literary concepts. *IQRO*. 2, 2 (Apr. 2023), 911–917.
5. Shamahmudova Aziza Furkatovna, Bakhramova Dilovar Gazanfarovna. (2022) Verbal politeness as a strategy of approach. Journal of Positive School Psychology, Vol. 6, No. 5, 1593 – 1599, http://journalppw.com (http://journalppw.com/)
6. Shamahmudova Aziza Furkatovna, Shakirova Nodirabegim Shayxnurovna. (2022) Intercultural analysis of politeness strategies in uzbek and spanish languages. Journal of Positive School Psychology. Vol. 6, No. 4, 4088 – 4094, http://journalppw.com (http://journalppw.com/)
7. Shokhrukhovna U. S. Cognitive Approach to Classification of Conceptual Metaphors //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 34-37.
8. Talmy L. Toward a cognitive semantics // The Journal of the Linguistic Society of America. Vol.2. – Cambridje: Cup, 2002. – P. 576-578.
9. Turner M. The Literary Mind. – Oxford: Oxford University Press, 1996. –208 p.



10. Zwaan R., Radvansky G., Whitten S. Situation models and themes // Thematics: Interdisciplinary studies. – Amsterdam: Benjamins, 2002. – P. 35-53.

11. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.

12. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988. –192 с.

